

ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTINING BUGUNGI NUFUZI VA O'ZBEKISTONNING ISTIQBOLI YO'LIDA QO'SHGAN HISSASI

Abdullayev Mirzobek Norbek o'g'li
O'zDJTU Xalqaro Jurnalistika fakulteti
siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Islom Hamkorlik Tashkilotining bugungi nufuzi va O'zbekistonning istiqboli yo'lidagi qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Tashkilotning global masalalardagi roli, iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv va siyosiy birlashuv kabi muhim jihatlar tahlil qilinib, O'zbekistonning bu jarayonlardagi faol ishtiroki va undan olinadigan samaralar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT), bosh kotib, globallashuv, raqamlashish, BMT, assambleya, intellektual salohiyati, sammit, Yevropa Ittifoqi (YI), gumanitar yordam, Yevropa Tashqi Harakat Xizmati (EEAS).*

Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) 1969-yilda tashkil etilgan bo'lib, u musulmon mamlakatlarining hamkorligini ta'minlash, iqtisodiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda bir-birini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan. Bugungi kunda IHT 57 davlatdan iborat bo'lib, u dunyodagi musulmon aholisining o'ndan biridan ko'pini o'z ichiga oladi. Tashkilotning asosiy maqsadi - musulmon mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ularning manfaatlarini himoya qilish va global muammolarga qarshi birgalikda kurashishdir. O'zbekiston, IHT ning faol a'zosi sifatida, bu tashkilot doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Mamlakatning geosiyosiy ahamiyati, boy madaniy merosi va iqtisodiy potentsiali IHTning global maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning IHTdagi faoliyati, nafaqat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, balki mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. IHT o'z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni asosiy maqsad sifatida belgilab olgan:

- a'zo davlatlar o'rtasida islom birdamligini rag'batlantirish;
- iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalarda hamkorlikni mustahkamlash;

- irqiy kamsitishni, barcha shakldagi mustamlakachilikni tugatishga harakat qilish;

- tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tadbirlar belgilash;

- Falastin arab xalqining o‘z huquqlarini tiklash va uning yerlarini ozod qilish uchun kurashini qo‘llab-quvvatlash kabilardan iborat. Shuningdek, turli sohalarda mamlakatlardagi institutlar bilan ilmiy izlanishlarni tashkil qilishdan iborat [1]. Tashkilotning oliy organi Bosh kotib tomonidan boshqariladigan Bosh kotibiyat hisoblanadi. Bosh kotib a‘zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari tomonidan 4 yil muddatga saylanadi. Bosh kotibning 4 ta o‘rinbosari bo‘lib, ular siyosiy masalalar, fan va texnologiyalar bo‘yicha, iqtisodiy masalalar va ijtimoiy-madaniy masalalar bo‘yicha faoliyat olib borishadi. Bundan tashqari tashkilot huzurida quyidagi mustaqil tashkilotlar mavjud: Islom taraqqiyot banki, Islom yangiliklar agentligi, Islom teleradio eshittirishlar uyushmasi, Iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bo‘yicha Islom komissiyasi, Islom taraqqiyot fondi, Islom adolat sudi, Islom poytaxtlari uyushmasi, Ilmiy-texnikaviy rivojlanish islom fondi, Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkiloti va hakazo [2].

Islom Hamkorlik Tashkilotining hozirgi globallashtirilgan dunyoda o‘rni beqiyos hisoblanadi. Bunga bir qancha sabablar keltirish mumkinki, ya‘ni ushbu tashkilot o‘zining bo‘lib o‘tadigan sammitlarida global jihatdan yirik va dolzarb muammolarni yechish shuningdek, kelajak sari ildam qadam tashlash to‘g‘risida o‘ziga xos ko‘plab loyiha va dasturlar, qaror va tamoyillar ishlab chiqadi. Natijada tashkilot darajasi faqatgina a‘zo hisoblangan davlatlar uchunгина emas, ya‘ni mintaqaviy emas balki butun dunyo hamjamiyatini o‘ziga jalb etish bilan xarakterlanadi. Bunga yaqqol misollar tarzda keltirib o‘tish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, shuningdek 2017 yil 10 sentyabrda Astana shahrida (Qozog‘iston) bo‘lib o‘tgan IHTning Fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitida so‘zlagan nutqida ham ilm-fan, ma‘naviyat va ma‘rifatni rivojlantirishga doir amaliy takliflarni kun tartibiga qo‘ydi. Ayni paytda mamlakatimiz rahbari IHT yuksak minbarlaridan turib e‘lon qilgan ezgu tashabbuslar hayotga keng tatbiq etilmoqda [3]. Ushbu o‘rtaga tashlangan takliflar bevosita raqamlashib borayotgan dunyo uchun zamonaviy yoshlarni tarbiyalashdan iborat ekanligini anglash mumkin. Sababi, ilm-fan shiddat bilan o‘tib, rivoj topayotgan davrda aynan shu kabi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan sohalarni rivojlantirish bo‘yicha, shu bilan birgalikda har bir insonning ma‘naviyati va

ma'rifatini yetuk shakllantirilgan holatda bo'lishini ilgari surilgan. Bundan tashqari, 2019 yil 7-8-oktyabr kunlari poytaxtimizda IHT Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasining "Tinchliksevar, demokratik jamiyatlar barpo etish va barqaror rivojlanish yo'lida yoshlar huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishning ahamiyati" mavzusidagi yillik 6-seminari bo'lib o'tdi. Xalqaro anjuman ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surgan BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini qabul qilish to'g'risidagi tashabbusini qo'llab-quvvatladilar [4]. Ushbu tashabbuskorlik butun dunyo miqyosida ijobiy tarzda qabul qilindi. Sababi, «Yoshlar bizning umidimiz, ertangi kunimiz. Shuning uchun yoshlarga keng yo'l ochib berish, ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish, hayotda o'z o'rnini topishiga yordam berish, ularga mas'ul lavozimlarni ishonib topshirish bundan buyon ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi» deb aytib o'tgan prezident Shavkat Mirziyoyev. Ma'ruza davomida aytilniki, bugungi shiddatli zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar inson aqlini shoshirib qo'yishi, shubhasiz. Insoniyat rivojlanishining barcha bosqichlari yosh avlodning intellektual salohiyati, yuksak aqliy qobiliyati hamda huquq va manfaatlarining ta'minlanishiga bog'liqdir. Hozirgi kunda yoshlar jahon aholisining salmoqli qismini tashkil etadi. Shu sababli, yoshlarning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash har bir davlatning oldida turgan eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [5]. Bu tashabbuslar orqali O'zbekistonning kelajak istiqbollarini ko'rishimiz mumkin. Aynan shu holatlar davlat rivoji uchun harakat qiladigan asosiy qismni tashkil etuvchi yoshlarni (O'zbekistonda yoshlar 30%) qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab loyiha va dasturlar yaratilishiga sabab bo'ldi. Xuddi shu tashabbus IHT sammitida ham ilgari suriladi. Yuqorida ta'kidlangan holatlarda ko'rish mumkinki, IHT ning jahon miqyosida o'rni beqiyosdir. Ayni o'sha sammitlarda to'xtalib o'tilgan tashabbuslar jahon darajasida ekanligi IHT ning yuqori darajaga ega tashkilot ekanligiga yaqqol misoldir. Shu bilan birgalikda, IHT ning boshqa yirik tashkilotlar bilan aloqalari ham mavjudligi, uning jahon darajasidagi tashkilot ekanligini isbotlaydi. Ya'ni Yevropa Ittifoqining (YI) Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) bilan aloqalari va nozik masalalar bo'yicha hamkorlik qilishgan. Yevropa Ittifoqi va Islom Hamkorlik Tashkiloti har xil din vakillari o'rtasida muloqot, toqatni rivojlantirish, gumanitar yordam va inson huquqlari

masalalarini muhokama qildilar. IHT a'zo davlatlarida xristian va boshqa diniy ozchiliklarning holati to'liq muhokama qilinmagan. BMT Inson Huquqlari Kengashining 2011-yilda qabul qilingan 16/18 raqamli rezolyutsiyasi — diniy toqatni qoralashni talab qilgan — YI va IHT o'rtasidagi munosabatlar uchun burilish nuqtasi bo'ldi. Yevropa Ittifoqining IHT bilan aloqalaridagi asosiy manfaatlari interkultural muloqot va toqatni rivojlantirish, shuningdek, diniy nafratga qarshi kurashdir, ammo o'zaro hamkorlik bu sohalardan tashqariga chiqadi. Masalan, YI va IHT BMTning Tinchlikni tiklash komissiyasiga institutial donorlar sifatida hamkorlik qilishadi va inson huquqlari kengashida Suriya kabi masalalarda hamkorlik qiladilar. Gumanitar yordam rivojlantirish ham umumiy manfaatdir, shuningdek, diniy toqat masalalari ham. Yevropa Ittifoqining Tashqi Ishlar va Xavfsizlik Siyosati bo'yicha Yuqori Vakili Ketrin Eshton 2012-yil 16-noyabrda Djibutida birinchi marta IHT vazirlar yig'ilishida nutq so'zladi. Yevropa Tashqi Harakat Xizmati (EEAS) ham IHT bilan aloqalarni rivojlantirmoqda. IHTning 2005-yilda qabul qilingan "O'n yillik Strategik Harakat Rejasi" inson huquqlari (tashkilot ichida mustaqil inson huquqlari komissiyasini tashkil etish orqali), ayollarning huquqlari va siyosiy ishtiroki, fuqarolik erkinliklari va ijtimoiy adolat kabi sohalarni o'z ichiga olgan holda IHTning manfaatlarini kengaytirdi. Biroq, bu qanday amalga oshirilishi 2014-yil yanvaridan keyin, Bosh kotib Ihsanog'lu o'z lavozimini Saudiya Arabistoni axborot vaziri Iyad ben Amin Madaniyga topshirgandan keyin qanday amalga oshirilishi hali ko'rinmayapti [6]. Muhimi IHT ning yuqori saviyali tashkilotlar bilan aloqalari uning ham yuqori darajada ekanligini ko'rsatib beradi.

Muxtasar qilib aytganda, IHT butun dunyoda o'z o'rniga ega tashkilotdir. Shuningdek, Islom Hamkorlik Tashkiloti bugungi kunda musulmon mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekiston esa bu jarayonda faol ishtirok etib, nafaqat o'z manfaatlarini himoya qilish, balki IHT doirasida islomiy qadriyatlarni rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlashda o'z hissasini qo'shmoqda. Bu esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Islom_hamkorlik_tashkiloti
2. O'sha manba
3. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/ozbekiston-va-islom-hamkorlik-tashkiloti-hamkorlik-yolida-yana-bir-qadam>
4. O'sha manba
5. https://uza.uz/oz/posts/yoshlar-huquqlari-togrisidagi-bmt-konvensiyasi-jahon-yoshlarining-huquq-va-manfaatlari-kafolati_197922
6. DIRECTORATE-GENERAL FOR EXTERNAL POLICIES.,POLICY DEPARTMENT DG EXPO/B/PolDep/Note/2013_200 September 2013 PE 491.520 POLICY BRIEFING., The Organisation of Islamic Cooperation: Defined – for better and worse - by its religious dimension., 9-b